

О'RTA OSIYODA QO'LLANILGAN KALENDARLAR

Abdumutalova Bibioysha Shuxratjon qizi

Namangan davlat universiteti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida qadimda mavjud bo'lgan oy va Quyosh kalendarlari jumladan, Zardusht kalendarlari, Muchal kalendarlari, So'g'd kalendarlari haqida, ularning hisobi, ulardagi oylar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zardusht, „Avesto“, taqvim, Abu Rayxon Beruniy, So'g'd, kalendar, „Xronologiya“, muchal, „Turk jadvali“, O'rta Osiyo, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, era, Eron, Ulug' oy, Kichik oy.

O'rta Osiyo xalqlari boy tarixiy-ilmiy an'analarga ega. Shu an'analarning biri ajdodlarimizning qariyb uch ming yildan buyon qo'llab, foydalanib kelgan turli taqvimlardir. Ular haqida o'rta asrlarning buyuk allomalari Abu Rayxon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'beklar o'z asarlarida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

Zardusht kalendari Eron va O'rta Osiyo xalqlari qo'llagan eng qadimgi yil hisobidir. Zardusht yil hisobi Quyosh yiliga asoslangan bo'lib, 12 oydan iborat. Har bir oy 30 kun, yana qo'shimcha 5 kun bor. Bu 5 kun sakkizinchi oydan keyin qo'shilgan bo'lib, shunda to'qqizinchi oyning boshlanishi Navro'zga to'g'ri kelgan. Taqvimdagi 12 oyning nomi „Avesto“dagi ma'budalarning nomiga borib taqaladi. Oy nomlaridan tashqari oy tarkibiga kirgan kunlarning ham alohida-alohida nomlari bo'lgan. „Avesto“ning milodiy VI asrda sasoniyalar davrida tuzilgan matnida oylar va kunlar to'liq nomi ro'yxati keltirilgan. Biroq ba'zi calendar atamalari „Avesto“ning eng azaliy qismlari deb hisoblovchi miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarkib topgan „Gotlar“da ham uchraydi. Olimlarning taxmin qilishicha, bu taqvim sharqiy Eron va O'rta O'siyoda miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida tuzilgan. Dastlab, g'arbiy Eronda Ahamoniylar davrida rasmiy davlat taqvimi sifatida qabul qilingan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining „Xronologiya“ asarida miloddan avvalgi 441-yilda Zardusht yil hisobi shu yildan boshlangan deb ko'rsatadi. Zardusht kalendari 365 kun, har biri 30 kundan tuzilgan 12 oy va yana 5 kundan iborat, 4 yilda bir yana bir kun orttirilgan. Demak, har 4 yilda (kabisa yili) o'n ikkinchi oyning oxiriga 5 kun emas 6 kun qo'shilgan.

So'g'd yil hisobi - Markaziy Osiyoda yashagan so'g'diylarning quyosh taqvimiga asoslangan yil hisobi. So'g'd taqvimi Qadimgi Eron va Xorazm taqvimlariga juda yaqin bo'lgan. Bir yil 12 oy va har biri 30 kundan tashkil topgan. Ortiqcha 5 kun yilning 12-oyi oxiriga qo'shilgan. Bu 5 kun alohida nom bilan aytilgan. Har yili qoldiq sifatida yig'ilib boradigan chorak kunning 4 yilda to'la bir kun bo'lishiga e'tibor

berilmagan. Yangi yil bahorgi teng kunlikdan boshlangan. So'g'd oylarining tartibi va nomlari quyidagicha:

1. Nasvard
2. Jarjin
3. Naysanj
4. Basokanj
5. Ashnxanda
6. Majnda
7. Farkon
8. Obonj
9. Fug'
10. Masfug'
11. Jamdanj
12. Xashvin

Oylar nomlarining o'qilishi va aytilishida ayrim tafovutlar bor. Chunki qo'lyozma manbalarda so'g'd oylarining nomi faqat undosh tovushlar bilan yozilgan. Undoshlar orasidagi unlilar yozilmagan.

So'g'd yil hisobi qachondan boshlangiligi va qaysi voqea asos qilib olinganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha so'g'd taqvimi ancha qadimdan mavjud bo'lsada rasmiy yil hisobi milodiy 413-yildan boshlangan. So'g'd taqvimiga oid atamalar va yil hisobi sanalari IX-X asrlarga oid tangalar, bitiklar, maktublar va rasmiy davlat hujjatlarida tez-tez uchrab turadi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarida qator sharq xalqlari kalendarlari haqida ma'lumot berib, turk va hazarlar ni ham tilga oladi: „ hind, xitoy, Tibet, turk hazar ,habash va zangi kabi boshqa millatlarning oylariga kelsak garchi ulardan bazasining nomlari bizga aniq ma'lum bo'lsa ham , to ularning barchasini bilish vaqti kelguncha bayon etishdan to'xtadik''. Olim turkey xalqlar taqvimidagi 12 oy nomini yozadi:

- | | |
|------------------|---------------------|
| 1. Ulug' oy | 7. Beshinchi oy |
| 2. Kichik oy | 8. Oltinchi oy |
| 3. Birinchi oy | 9. Yettinchi oy |
| 4. Ikkinchi oy | 10. Sakkizinchi oy |
| 5. Uchinchi oy | 11. To'qqizinchi oy |
| 6. To'rtinchi oy | 12. O'ninchi oy |

Abu Rayhon Beruniy mazkur sahifada yana turk taqvimi haqida gapirib, „ Turk jadvali “ degan sarlavha ostida o'n ikki hayvon nomi bilan ataladigan o'n ikki yillik muchal hisobining nomlarini ham keltiradi:

- | | |
|---------------|-------------|
| 1. Sichqon | 7. Yunt(ot) |
| 2. Ud (sigir) | 8. Qo'y |

- | | |
|---------------------|-------------------|
| 3. Bars | 9. Pichin(maymun) |
| 4. Tovushqon(quyon) | 10. Tovuq |
| 5. Luy (baliq) | 11. It |
| 6. Yilon (ilon) | 12. To'ng'iz |

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki turkey xalqlarning asosiy taqvimini muchal hisobidan iborat bo'lgan yilning 12 oyi Beruniy keltirgan nomlar bilan atalgan. Biroq Beruniy turkey xalqlarda qadim zamonlardan buyon biror voqea asos qilib olingan ,, Tarix " boshi deb atalgan , raqam bilan hisoblab kelinadigan yil hisobi to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shu bilan birga yuqoridagi aytilgan 12oyning kunlar miqdori , oddiy va kabisa yili , yilning boshlanishi , yangi kunning qachondan boshlanishi ham aytilmaydi. Har holda qadimgi turkey xalqlarda ham Yaqin va O'rta sharqdagi boshqa kalendarlarda bo'lgani kabi yil boshi bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Chunki qadimgi turkiy xalqlar qo'llagan muchal yilining birinchi kuni bahorgi teng kunlikdan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar.- T: ,, Fan" 1968
2. Xronologiya Z. Rahmonqulova . Toshkent ,, VORIS NASHRIYOT" -2013
3. Xronologiya va metrologiya . N.M. Hamayev (o'quv qo'llanma) FARG'ONA -2013